

## LUG‘ATLARDAN FOYDALANISH KOGNITIV TA‘LIMNING ASOSI

**Saidova Kamola**

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada lug‘atlar va ularning turlari, tasnifi, zamonaviy inson uchun tutgan o‘rni haqida so‘z boradi. Har xil turdagi lug‘atlar va ularni tuzish tamoyillari ko‘rib chiqilgan. Kognitiv ta‘limda lug‘atlardan foydalanish zarurati haqida ma‘lumot berilgan. Ta‘limda turli lug‘atlardan foydalanishga o‘rgatadigan mashq va topshiriqlarga misol keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Lug‘at, so‘zlik, ideografik lug‘at, fonetik yondashuv, semantic yondashuv, kognitiv ta‘lim

### KIRISH

Lug‘atlar bugungi kunning eng mashhur ma‘lumotnomalari sanaladi. Ular bizning turmushimizda, o‘quv jarayonida shu qadar mashhurki, “lug‘at” so‘zi haqida tasavvurga ega bo‘lmagan odamni topish qiyin. Turli manbalar lug‘atga har xil ta‘rif beradi. Lug‘at - bu so‘zlar (yoki morfemalar, so‘z birikmalari, iboralar va boshqalar) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma‘nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida ma‘lumotlar jamlangan kitob.

[<https://uz.wikipedia.org/wiki>] Lug‘atlarda jamiyatning ma‘lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug‘at bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: o‘quvchiga muayyan hodisa haqida ma‘lumot beradi; uni o‘z va o‘zga tillardagi so‘zlar bilan tanishtiradi; tilning lug‘at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam beradi.

### MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Lug‘at turlari, so‘zlik (lug‘atdan izohlanayotgan yoki tarjima qilinayotgan so‘z) tarkibi, lug‘aviy maqolalar strukturasini kabi masalalar leksikografik nazariyada asosiy masala hisoblanadi. Lug‘atning hajmi u uchun tanlangan so‘zlik bilan bog‘liq bo‘lib, so‘zlik ma‘lum maqsadga ko‘ra tanlab olinadi. So‘zlik lug‘atning mazmunini tashkil qiladi. So‘zlik lug‘at uchun tanlangan so‘zlar ro‘yxati bo‘lib, bu ro‘yxat ma‘lum tartibda beriladi. Mana shu so‘zlikning berilish usuli nuqtai nazaridan lingvistik lug‘atlar uch tipga bo‘linadi.

- 1) alfavit tartibli lug‘atlar; .
- 2) tematik lug‘atlar;
- 3) uyali lug‘atlar.

Alfavit tartibli lugʻatlarda soʻzlikni tarkib toptirgan soʻzlar roʻyxati alfavit tartibida beriladi. Unda soʻzlar avvalo birinchi harflari asosida, har bir harf doirasida esa ichki harflari alfaviti tartibida joylashtiriladi. Leksikografiyada soʻzning birinchi harfi boʻyicha qilingan tartib “sirtqi tartib”, keyingi harflar boʻyicha qilingan tartib “ichki tartib” deb yuritiladi[1,303]. Hozirgi oʻzbekcha lugʻatlar deyarli alfavit tartibli lugʻatlardir. Chunki alfavit tartibli lugʻatlar foydalanish uchun nihoyatda qulay. Tematik lugʻatlarda soʻzlikni tarkib toptirgan soʻzlar roʻyxati maʼlum temalarga boʻlib beriladi. Roʻyxatni temalarga boʻlish turli koʻrinishlarda boʻladi. Koʻp hollarda ular avval soʻz turkumlari boʻyicha ajratib olinib, keyin ot, sifat, feʼl turkumiga oid soʻzlar ichki tematik boʻlinishlar bilan beriladi. Baʼzan esa soʻzlik toʻgʻridan-toʻgʻri tematik qismlarga, uning ichida turkumlarga ajratiladi. Uning ichida alfavit tartibi qoʻllanishi ham mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan lugʻatdagi soʻzlarning joylashuvi maʼlum yondashuv asosida amalga oshirilishi kelib chiqadi:

- a) Fonetik yondashuv ( tovush yaqinligi boʻyicha);
- b) Semantik yondashuv

Tovush yaqinligi asosida yondashuv soʻzlikning alifbo tartibida tanlanishiga olib kelgan. Buni quyidagicha izohlaymiz. Til lugʻaviy birliklardagi oʻzaro farqlanuvchanlik turli xil darajada roʻyobga chiqarilgan. Qiyoslang: leksemalar fonemalarni zidlash asosida hosil qilingan: a) bittadan fonemaning: [u — olmosh] — [e — undov]; b) ikkitadan fonemaning: [ish] — [ot]; v) uchtadan fonemaning: [bor] — [soʻz]; g) toʻrttadan fonemaning: [toʻrt] — [eshik] kabi. Kuchli oppozitsiyalardan tashqari, kuchsiz oppozitsiyalar bilan ham ish koʻrilgan, yaʼni leksemalar ayrim fonema yoki fonemalar uyushmasi orqali oʻzaro farqlangan: [tosh] — [bosh], [ota] — [ona], [koʻz] — [koʻr]; [kishi]—[ki- chnk], [sakson] — [saksovul] va hokazo [2,15]. Bu holat ohang tomondan yaqin soʻzlarni xotirada saqlash imkonini bergan. Bu imkoniyat esa alifbo tartibidagi lugʻatlarni yaratilishiga olib kelgan. Mazkur lugʻatlarning kuchli tomoni shundaki, bizga maʼlum har qanday soʻzni tez topish imkonini beradi. Bu esa alifbo tartibidagi lugʻatlarning qulayligi va ustun mavqega ega boʻlishiga olib keldi. Amaliy jihatdan juda qulay boʻlishiga qaramasdan, soʻzlari alifbo tartibida joylashtirilgan lugʻatdan foydalangan oʻquvchi tez zerikadi. Chunki bu tartibdagi lugʻatda soʻzlar mazmun boʻyicha tasniflanmaydi. Inson miyasi hamma narsada qandaydir mantiqiy bogʻlanishni, bosqichma-bosqich izchillikni talab qiladi. Til belgilar tizimi sifatida inson tafakkuriga taʼsir koʻrsatadi. Tafakkur insonning borliqni idrok etish jarayonini aks ettiradi va bu jarayonda bilim shakllanadi. Bilim borliq hodisalari, tabiat va jamiyat qonunlarini tushunishdan hosil boʻladi. Bilim soʻzlarda ifodalanadi. Shuning uchun soʻzlarni qaysidir maʼnoda voqelikning aksi deyish mumkin. Soʻz orqali aks etuvchi voqelik maʼlumotlarning tartibsiz yigʻindisi

emas, ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga chiqadigan structural butunlikdir. Masalan: Dunyo haqidagi bilimlarimiz doimo rivojlanib borgani sari tilning leksik qatlami ham doimiy ravishda boyib boradi. Shu asosda hosil bo'lgan yangi so'zlar mavjud so'zlarga shunchaki tartibsiz ravishda qo'shilmaydi, balki bizning ongimizda ilgari shakllangan tizimga joylashtiriladi. Borliq hodisalari, aytilganidek, sistema sifatida, ya'ni o'zaro uyushgan, o'zaro umumiy va farqlovchi belgilari asosida birlashgan holda ongda aks etadi. Bir qarashda ular tartibsizdek tuyuladi. Lekin inson ongi ulardagi botiniy tartibni idrok etadi va xotirada saqlash uchun tartibli ravishda qabul qiladi. Hodisalar inson ongida guruh-guruh bo'lib saqlanadi va har bir guruhda ular sistema va element munosabatining qat'iy qonuniyatlariga tayanadi. Ongda borliq hodisalari haqidagi tushunchalar so'z va birikmalar, umuman olganda, til hodisalari bilan nomlanib, tartiblanadi. Bu borliq hodisalarining lisoniy tasnifi deyiladi. Tasnifda qat'iy mantiqiy qonuniyatlar amal qiladi[3,54]. Ideografik lug'at borliq hodisalarini tasniflash uchun yaxshi namuna bo'ladi. Fonetik tamoyil asosida tuzilgan lug'at qanchalik qulay hisoblansa, ma'lum bir g'oya asosida so'zlar to'plamini taqdim etuvchi lug'atning ham ahamiyati kam emas. Ideografik lug'at o'zaro bog'langan so'zlarni yonma-yon joylashtirish xususiyati orqali turli sintaktik va semantik o'zgarishlarni oldindan aytilish imkonini beradi. Lug'atlar zamonaviy dunyoda muhim o'rin tutadi, jamiyat tomonidan asrlar davomida to'plangan bilimlarni aks ettiradi. Ular tilni tavsiflash va tasniflash maqsadlariga xizmat qiladi, so'zlovchilarning nutqining to'g'riligi va ifodaliligini yaxshilashga yordam beradi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Bugungi kunda turli xil ma'lumotlarni saqlash va uzatishning strategiyasi va usullari rivojlanib bormoqda. Jumladan, ta'lim sohasida ham axborotlarni saqlash va uzatish usullarini rivojlantirish dolzarbdir. Ta'lim standartlarida matnlarni o'qish, tushunish, sharhlash va baholash qobiliyati bosh maqsad darajasida qaraladi, barcha o'qituvchilardan o'quvchilarga semantik o'qish strategiyalarini o'rgatish, lug'at kompetensiyasini shakllantirish qobiliyati talab qilinadi. Ta'lim jarayonida matnlar axborotni saqlash va uzatish imkonini beradi. Matn turlari ularda saqlanadigan ma'lumotlar turiga qarab belgilanadi. So'z matnda yashaydi va uning asosi lug'atlarda saqlanadi. Bu esa ta'lim jarayonida lug'atlarning ahamiyati va ularga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi. Matn tushunishda lug'atlar bilan ishlamasdan turib ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Demak, bundan kognitiv ta'limda lug'atlar bilan ishlash muhim o'rin tutishi kelib chiqadi. Har xil turdagi lug'atlar va ensiklopediyalardan ma'lumot o'qish qobiliyati kognitiv ko'nikmalarni shakllantiradi. Ushbu asosiy ko'nikma o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga va ularning ijtimoiylashuviga yordam beradi, chunki o'quvchi nutqiy faoliyatning barcha turlarini o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Lug'atlar bilan ishlash qobiliyati shaxs rivojlanishining barcha darajalari

uchun asosiy hisoblanadi, lekin u birinchi navbatda, shaxs tafakkuri rivojlanishiga xizmat qiladi.

Lugʻat ustida ishlash oʻquvchi va talabalarning soʻz boyligini, ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirishning eng muqim omillaridan biri boʻlib hisoblanadi va shu lugʻat yordamida nafaqat soʻzlarning tub maʼnosini, balki koʻchma maʼnolari, har bir soʻzning qaysi til unsuri ekanligi, etimologiyasi (soʻzning kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji), tarkibi, baʼzan esa grammatik shakli bilan yaqindan tanishiladi.

Badiiy matn lisoniy tahlil qilinar ekan, izohli, atamashunoslik, tarjima, tarixiy va zamonaviy lugʻatlar va qomuslar shu tahlilga asosiy manba boʻlib xizmat qiladi[4,52].

Yuqoridagi firklarga asoslanib maktab taʼlimida matnni tushunishda lugʻatlardan foydalanish usullariga misollar keltiramiz: A. Navoiyning quyidagi tuyugʻini lisoniy tahlil qilishda lugʻatlarga asoslanamiz.

Yo rab, ul shahdu shakar, yo labdurur,

Yo magar shahdu shakar yolabdurur.

Jonima payvasta novak otqali

Gʻamza oʻqin qoshigʻa yolabdurur.

Mazkur sheʼrda tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlar tarixiy soʻzlar sanaladi. Biz bu soʻzlarni mumtoz asarlar boʻyicha tuzilgan izohli lugʻatlardan topishimiz mumkin:

Shahd- asal, bol

Payvasta- 1) hamisha, doim. 2) tutashgan

Novak- 1) kamonning oʻqi; 2) kiprik

Gʻamza- 1) koʻz ishorasi, koʻz bilan ishora qilish; 2) noz va dilbarona ishva bilan kiprik suzib boqish [5,125]

Tarixiy soʻzlarning izohi tushunilgach, oʻquvchiga matnda qoʻllanilgan shaklan bir xil, mazmunan har xil boʻlgan soʻzlarni aniqlash topshirigʻi beriladi. Bu topshiriqni bajarishda oʻquvchi omonim soʻzlar lugʻatiga murojaat qiladi:

1) yo labdurur- yo labmi?

2) yolabdurur – yalamoq

3) yolabdurur – joylamoq, yollamoq

Tuyuq mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: «Yo rabbim, bu asalmi, shakarmi, yo labmi? Yo u sanam asal, shakar yalabdimi? Jonimga tinimsiz (payvasta) oʻqlar otmoq uchun gʻamza (noz-karashma) oʻqini qoshiga (qoshning yoyga oʻxshashligiga ishora) joylabdimi?» Tuyuqning butun tarovati «yolabdurur» soʻzi ifodalagan turli maʼnolar ichiga yashiringan.

Bundan tashqari oʻquvchilarga lab, shahd kabi soʻzlarning sinonimik qatorini tuzish topshirigʻi orqali ularni sinonimlar lugʻati bilan ishlashga oʻrgatish mumkin:

1) Lab-irin-dudoq –dahan;

2) Shahd-bol-asal

Yo labdurur va yolabdurur soʻzlarining maʼnosini tushunishda ularning imlo qoidalariga ahamiyat berilishi imlo lugʻati bilan ishlash koʻnikmasini shakllantiradi:

Yo labdurur – yo labmi, ajratib yoziladi.

Qoʻshimcha topshiriq sifatida shakar soʻzining etimologiyasini aniqlashni berish mumkin:

SHAKAR- bu ot asli hindcha boʻlib, tojik tiliga bu tildan oʻzbek tilga olingan. Lavlagi shakarqamishdan sanoat yoʻli bilan olinadigan oq –sargʻish rangli qumsimon shirinlik maʼnosini anglatadi [6, 259].

Matnda berilgan baʼzi soʻzlarning qarama-qarshi maʼnolarini aniqlash ham oʻquvchi va talabalarning nutqini oʻstirishda, fikrlash qobiliyatini kengaytirishda muhim omillardan hisoblanadi. Bunday soʻzlarning qarama-qarshi variantini aniqlash antonim soʻzlar lugʻati orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi topshiriqlarni umumlashtirsak, badiiy matnni lisoniy tahlil qilishning lugʻatlarga asoslanish usuli orqali oʻquvchi:

- 1) Izohli lugʻatdan;
- 2) Omonimlar lugʻatidan;
- 3) Sinonimlar lugʻatidan;
- 4) Antonimlar lugʻatidan;

5) Imlo lugʻati va boshqa lugʻatlardan foydalanish koʻnikmasiga ega boʻladi, bu esa oʻz navbatida oʻquvchining matndan turli xil maʼlumotlarni (faktik, kontseptual, subtekst) ajrata olishiga, matnni teran tushunishi va sharhlay olishiga yordam beradi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Bugungi kunda hayotimizda lugʻatlarning oʻrni ortib bormoqda. Lugʻatlar hayotimizning doimiy hamrohlari, bilimlarni kengaytirish va soʻzlash madaniyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Taʼlimda oʻquvchining lugʻat bilan ishlashini yaxshilash uning fikrlash, ong, xotira va tilning oʻzaro munosabati asosida amalga oshadigan kognitiv bilish jarayoniga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bunga erishish uchun lugʻat bilan ishlashda oʻqituvchi rahbarligida tizimli ravishda mashq va topshiriqlar berilishi, asta –sekin lugʻatlardan mustaqil foydalanish koʻnikmasi shakllantirilishi kerak. Bundan tashqari oʻquvchilarni onlayn, internet lugʻatlaridan ham samarali foydalanishga oʻrgatish kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. Fan. 1981.
2. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent. O‘qituvchi. 1993.
3. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2017.
4. Lapasov J. “ Badiiy matn va lisoniy tahlil”. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.
5. Shamsiyev P., Ibragimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent, G‘afur G‘ulom. – 1972
6. Rahmatullayev SH. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. III tom. – Toshkent, Universitet. – 2009.
7. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent. - O‘qituvchi. -1995